

## TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020-yil 1-aprel holatigako'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

## Mamlakatimizda oxirgiyillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*


*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar vaqulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*

*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-apre holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-aprel holatiga ko'ra, ming birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



### Yuridikshaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

## Ro'yxatdan o'tgan tijoratkorxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

28 377



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

3 453



Oilaviy korxonona

236



Unitar korxonona

8 030



Xususiy korxonona

56




Aksiyadorlik jamiyati

2 811




Boshqalar

mas'uliyaticheklanganjamiyat  
birlik



xususiy korxonona  
birlik




### Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra)


birlik



## Faoliyat ko'rsatayotgankorxonona va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra)



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



### Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat–aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; –aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-mart oylarida, birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyatlari bo'yicha, yanvar-mart oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2020-yil yanvar-mart oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020-yil yanvar-mart oylarida 2 295 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 1 698 ta, xususiy korxonalar - 180 ta, oilaviy korxonalar - 343 ta, muassasalar - 22 ta va boshqalar - 52 tani tashkil etdi.




## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi (1-aprel holatiga ko'ra)



- Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish
- O'rmon xo'jaligi
- Baliq xo'jaligi



## Sanoatyo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 7 927 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,3% ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 125,8% ga (jami sanoatdagi ulushi 92,6%), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 123,1% ga (jami sanoatdagi ulushi 4,4%), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 121,6% ga (jami sanoatdagi ulushi 0,8%) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 108,2% ga (jami sanoatdagi ulushi 2,2%) o'sishidir.

## Qurilish faoliyatibilanshug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-aprel holatigako'ra, birlikda)




2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 161 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,3 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 124,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 57,4 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 124,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 6,2 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 139,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 36,4 %) o'sishidir.

## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-aprel holatigako'ra, birlikda)

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 10 367 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 136,7 % ga oshdi. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 136,4 % ga (jami savdodagi ulushi 69,4 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 140,2 % ga (jami savdodagi ulushi 23,9 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurjiva chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 128,9 % ga (jami savdodagi ulushi 6,7 %) o'sishidir.



## Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonava tashkilotlar soni

(2020-yil 1-aprel holatigako'ra, birlikda)



**Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat**  
**628 ta**



**Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash**  
**23 ta**



**Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish**  
**18 ta**

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonava tashkilotlar soni

(2020-yil 1-aprel holatigako'ra, birlikda)



**262**

**yashash bo'yicha xizmatlar**




**2 839**

**oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar**

2020-yil 1-aprel holatigako'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonava tashkilotlar soni 3 101 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 127,1 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonava va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili— oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 125,8 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 91,6 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 142,4 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 8,4 %) o'sishidir.

## Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-aprel holatigako'ra, birlikda)



2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 489 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,4 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar, o'tgan yilga nisbatan – 126,7 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 3,9 %), axborot sohasidagi xizmatlar, o'tgan yilga nisbatan – 193,9 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 13,1 %), noshirlik xizmatlari, o'tgan yilga nisbatan – 144,6 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 16,6 %) dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar, – 100,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,0 %), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari, o'tgan yilga nisbatan – 109,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 33,7 %), aloqa xizmatlarining – 131,4 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 31,7 %) o'sishidir.


**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 10-yanvardagi "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 17-son qaroriga muvofiq **IT-PARK** ishga tushdi.

**IT-PARK maqsadi:**

-yosh iqtidor egalari g'oyalarini istiqbolli biznes loyihalariga aylantirishga ko'mak beradigan maskan;

-yuridik shaxslarni uning rezidentlari sifatida ro'yxatdan o'tkazish, soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash tartibini belgilash, "startup-loyihalarni" har tomonlama, shu jumladan, venchur moliyalashtirish asosida qo'llab-quvvatlash.

## Oilaviy korxonalar soni (1-aprel holatigako'ra, birlikda)



Tashkiliyhuquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 3 453 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 328 taga yoki 162,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 086 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 248 taga yoki 167,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 343 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 48 taga yoki 167,9% ga oshganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-aprel holatigako'ra, birlikda)


Tashkiliyhuquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 28 377 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9 412 taga yoki 149,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 24 893 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 843 taga yoki 112,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 689 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 291 taga yoki 14,6% ga kamayganligini ko'rish mumkin.




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 1 360 tani tashkil etib, ulardan 1 217 tasi yoki 89,5 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 304 taga yoki 33,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-mart oylarida viloyatimizda 58 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
<b>Jami</b>	<b>517</b>	<b>546</b>	<b>631</b>	<b>913</b>	<b>1 217</b>
<i>shujumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqxo'jaligi	42	45	57	80	116
Sanoat	340	350	407	558	700
Qurilish	11	9	13	26	52
Savdo	63	71	74	139	195
Tashish va saqlash	7	13	13	19	18
Yashash va ovqatlanishbo'yichaxizmatlar	8	8	11	14	26
Axborot va aloqa	0	0	1	1	6
Sog'liqnisaqlash va ijtimoiyxizmatlarko'rsatish	3	3	6	11	12
Boshqaturlar	43	47	49	65	92




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyatlari bo'yicha soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
<b>Jami</b>	<b>11 781</b>	<b>13 761</b>	<b>15 505</b>	<b>18 965</b>	<b>24 893</b>
<i>shujumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqxo'jaligi	1528	1916	2392	2812	3561
Sanoat	2705	3114	3687	4463	5672
Qurilish	1015	1168	1553	1953	2642
Savdo	3186	3626	3838	4922	6968
Tashish va saqlash	677	794	859	997	1228
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	875	1059	1114	1326	1664
Axborot va aloqa	223	236	236	227	295
Sog'liq nisaqlash va ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish	142	181	233	277	361
Boshqaturlar	1430	1667	1593	1988	2502

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiyfaoliyatturlaribo'yicha soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
<b>Jami</b>	<b>833</b>	<b>1 157</b>	<b>1 411</b>	<b>1 838</b>	<b>3 086</b>
<i>shujumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqxo'jaligi	195	256	237	237	341
Sanoat	327	440	573	712	1040
Qurilish	5	5	13	15	20
Savdo	113	169	224	363	856
Tashish va saqlash	2	12	12	20	21
Yashash va ovqatlanishbo'yichaxizmatlar	139	204	263	370	619
Axborot va aloqa	4	4	7	3	10
Sog'liqnisaqlash va ijtimoiyxizmatlarko'rsatish	0	4	5	12	14
Boshqaturlar	48	63	77	106	165


## Toshkent viloyatida chet el davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Xitoy Xalq Respublikasi	325	108	217
Rossiya Federatsiyasi	184	108	76
Turkiya Respublikasi	157	78	79
Qozog'iston Respublikasi	113	67	46
Janubiy Koreya Respublikasi	92	46	46
Buyuk Britaniya Va SHimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi	36	29	7
Amerika Qo'shma SHtatlari	36	22	14
Germaniya Federativ Respublikasi	26	18	8
Eron Islom Respublikasi	32	18	14
SHveysariyal ittifoqi	11	10	1
Boshqa davlatlar	205	123	82

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




## Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>284</b>	<b>155</b>	<b>129</b>
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	11	5	6
Ohangaron	70	30	40
Bekobod	10	7	3
Bo'stonliq	45	25	20
Bo'ka	10	6	4
Quyichirchiq	46	26	20
Zangiota	150	72	78
Yuqorichirchiq	99	53	46
Qibray	121	63	58
Parkent	23	12	11
Piskent	16	9	7
O'rtachirchiq	80	42	38
Chinoz	20	12	8
Yangiyo'l	72	26	46
Toshkent	66	40	26
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon sh.	56	27	29
Olmaliq sh.	44	16	28
Angren sh.	81	55	26
Bekobod sh.	21	15	6
Ohangaron sh.	42	19	23
Chirchiq sh.	79	50	29
Yangiyo'l sh.	55	17	38

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Angren 81 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 6,7 %), Chirchiq shaharlarda 79 ta (6,5 %) va Zangiota 150 ta (12,3 %), Qibray 121 ta (9,9 %), Yuqorichirchiq 99 ta (8,1 %), O'rtachirchiq 80 ta (6,6%), Yangiyo'l 72 ta (5,9 %), Ohangaron 70 ta (5,8 %) hamda Toshkent tumanlarda 66 tani (5,4 %) tashkil etadi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar asosiy qismi Angren 2 850 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 6,1 %), Chirchiq shaharlarda 2 433 ta (5,2 %) va Zangiota 5 233 ta (11,2 %), Qibray 4 473 ta (9,6 %), Toshkent 3 376 ta (7,3 %), Yuqorichirchiq 2 531 ta (5,4 %), O'rtachirchiq 2 447 ta (5,3 %) Yangiyo'l 2 443 ta (5,2 %) Bo'stonliq 2 227 ta (4,8 %) hamda Parkent tumanlarda 2 067 tani (4,4 %) tashkil etadi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020-yil yanvar-mart oylarida, birlikda)

Eng ko'p yangi tashkil etilgan		Eng kam yangi tashkil etilgan	
Zangiota	286 ta	Bo'ka	89 ta
Qibray	176 ta	Olmaliq sh.	88 ta
O'rtachirchiq	157 ta	Oqqo'rg'on	78 ta
Toshkent	143 ta	Nurafshon sh.	76 ta
Yuqorichirchiq	119 ta	Yangiyo'l sh.	76 ta
Chirchiq sh.	119 ta	Ohangaron	75 ta
Bo'stonliq	113 ta	Bekobod sh.	69 ta
Yangiyo'l	113 ta	Bekobod	65 ta
Quyichirchiq	107 ta	Chinoz	54 ta
Angren sh.	100 ta	Piskent	52 ta
Parkent	92 ta	Ohangaron sh.	48 ta



2020-yil yanvar-mart oylaridayangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, asosiy ulush Zangiota (12,5 %), Qibray (7,7 %), O'rtachirchiq (6,8 %), Toshkent (6,2 %), Yuqorichirchiq (5,2 %), Bo'stonliq, Yangiyo'l (4,9 % dan), Quyichirchiq (4,7 %) tumanlariga va Chirchiq (5,2 %) hamda Angren (4,4 %) shahariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha soni (2020-yil yanvar-mart oylarida, birlikda)




2020-yil yanvar-mart oylaridayangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar kesimida tahlil qilganda, asosiy ulush Zangiota (12,6 %), Qibray (7,8 %), O'rtachirchiq (7,0 %), Toshkent (6,3 %), Yuqorichirchiq (5,3 %), Bo'stonliq, Yangiyo'l (4,9 % dan), Quyichirchiq (4,8 %) tumanlariga va Chirchiq (5,2 %) hamda Angren (4,5 %) shaharlariga to'g'ri keladi.






## Hududlar kesimida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni<sup>1)</sup>

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimida soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




<sup>1)</sup>Doimiy aholi soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra shakllantirilgan.

## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Nurafshon (umumiy miqdoridagi ulushi 2,6 %), Olmaliq (4,2 %), Angren (6,0 %), Bekobod (2,9 %), Ohangaron (2,4 %), Chirchiq (5,9 %), Yangiyo'l shaharlarida (3,3 %) va Oqqo'rg'on (2,1 %), Ohangaron (2,9 %), Bekobod (2,1 %), Bo'stonliq (4,1 %), Bo'ka (2,5 %), Quyichirchiq (2,9 %), Zangiota (12,9 %), Yuqorichirchiq (5,3 %), Qibray (10,1 %), Parkent (4,5 %), Piskent (2,6 %), O'rtachirchiq (5,4 %), Chinoz (2,1 %), Yangiyo'l (6,0 %) hamda Toshkent (7,2 %) tumanlari ulushiga ega.

## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi ulushi (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, foizda)



## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida o'gan yilga nisbatan tahlili

(2020-yil yanvar-mart oylarida, birlikda)

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	farqi (+,-)
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>295</b>	<b>343</b>	<b>48</b>
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	7	35	28
Ohangaron	5	3	-2
Bekobod	6	7	1
Bo'stonliq	34	26	-8
Bo'ka	5	10	5
Quyichirchiq	2	6	4
Zangiota	31	26	-5
Yuqorichirchiq	16	40	24
Qibray	27	19	-8
Parkent	14	20	6
Piskent	4	1	-3
O'rtachirchiq	43	41	-2
Chinoz	10	16	6
Yangiyo'l	27	13	-14
Toshkent	16	25	9
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon sh.	8	17	9
Olmaliq sh.	5	4	-1
Angren sh.	23	6	-17
Bekobod sh.	5	7	2
Ohangaron sh.	1	8	7
Chirchiq sh.	1	5	4
Yangiyo'l sh.	5	8	3

## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yichaulushi

(2020-yil yanvar-mart oylarida, foizda)

O'rtachirchiq	12,0 %	Bo'ka	2,9 %
Yuqorichirchiq	11,7 %	Ohangaron sh.	2,3 %
Oqqo'rg'on	10,2 %	Yangiyo'l sh.	2,3 %
Bo'stonliq	7,6 %	Bekobod	2,0 %
Zangiota	7,6 %	Bekobod sh.	2,0 %
Toshkent	7,3 %	Quyichirchiq	1,7 %
Parkent	5,8 %	Angren sh.	1,7 %
Qibray	5,5 %	Chirchiqsh.	1,5 %
Nurafshon sh.	5,0 %	Olmaliq sh.	1,2 %
Chinoz	4,7 %	Ohangaron	0,9 %
Yangiyo'l	3,8 %	Piskent	0,3 %

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan (UZSTAT). The main navigation bar includes links for 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUHOJATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The central content area features a dropdown menu for 'Xizmatlar ro'yxati' (List of services) with options: 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar pasporti'. The 'Korxonalar pasporti' option is selected, leading to a form titled 'STIR kodini kiriting' (Enter STIR code). The form includes a text input field for 'STIR kodini kiriting', a 'Rasmdagi kodni kiriting' (Enter code from image) section with a small image placeholder, and a 'Qidiruv' (Search) button. The left sidebar contains 'RASMIY STATISTIKA' (Official Statistics) with categories like 'E'lon qilish taqvimini', 'Metama'lumotlar', 'Makroko'rsatkichlar', 'Milliy hisoblar', 'Narx va indekslar', 'Investitsiyalar', 'Qurilish', and 'Tashqi iqtisodiy faoliyat'. The right sidebar contains 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' (Useful Information) with categories like 'Aholini ro'yxatga olish 2022', 'Harakatlar strategiyasi', 'Press-relijar', 'Choraklik natijalar', 'Nashrlar - statistika haqida', 'Uslubiy materiallar', and 'Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar'.

Tashqifoydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Toshkent viloyati**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

**Tel.:71230-86-84**

